

3.7. "Iste'molchi"ga o'rnatilishi lozim bo'lgan suv o'lchash qurilmasining shartli o'tkazgichning diametri (kalibri) hisob-kitob yo'li bilan aniqlanadi, ob'ektning maksimal va minimal suv iste'moliga tekshiriladi va "Ta'minotchi" bilan kelishilgan xolda amalga oshiriladi.

"Iste'molchi" tomonidan o'rnatiladigan hisoblagich texnik shartlarida ko'zda tutilgan eng kam o'lchov chegarasidan past ekanligi aniqlangan taqdirda, "Ta'minlovchi" buyurtma chiqarilgan kundan boshlab 30 kalendar kunlik muddat bilan buyurtma beradi. Suv o'lchash bo'g'inini diametri kichikroq bo'lgan moslamaga almashtirilmasa, suv ta'minoti va okova suvni chikarish uchun to'lov, ushbu shartnomaning 3.3-bandiga muvofiq amalga oshiriladi.

3.8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20.08. 2019 yildagi 698-sonli qaroriga binoan (4-band) yuridik shaxslar uchun hisoblagichlarni tekshirish muddati 4 yil. Tarafdardan birining tashabbusi bilan hisobga olish uskunasini tekshirishga yaroqliligi shubha tug'dirganda qo'shimcha tekshirilishi mumkin.

3.9. "Iste'molchi" vakili har oyning 26-28 sanasida "Ta'minotchi" bilan yakuniy hisob-kitob uchun iste'mol qilingan ichimlik suvi hajmini kelishib oladi. Iste'mol qilingan suvni hisoblash uchun asos tomonlar vakillari tomonidan imzolangan "Tasdiqlash"dir. "Ta'minotchi" va "Iste'molchilar" vakillari "Issiqlik Manbai" DUK filialining energiya resurslarini hisobga olish va realizatsiya guruhi binosida "Tasdiqlashlar"ni rasmiylashtiradilar.

Yetkazilgan suvning va hisob-kitoblar hajmining "Tasdiqlanishi" bilan rozi bo'lmagan taqdirda, "Iste'molchi" da'volarni "Tasdiqlash" topshirilgan kundan boshlab besh kundan kechiktirmay e'lon qiladi. Da'volar 10 kun ichida ko'rib chiqiladi va natijasi "Iste'molchiga" yetkaziladi. Muddatlar dam olish va ta'til kunlari soniga ko'paytiriladi. Agar "Iste'molchi" belgilangan miqdordagi suv iste'mol qilish bo'yicha da'volarni taqdim qilmasa, shartnomada belgilangan muddatda suv iste'mol qilish hajmi "Iste'molchi" tomonidan tan olingan deb hisoblanadi va hisoblash uchun amal qilinadi. Yozma ariza berish "Iste'molchi"ni to'lov hujjatini to'liq va belgilangan muddatda to'lash majburiyatidan ozod qilmaydi.

Agar "Iste'molchi" vakili 26-28 sanasida kelmasa, ichimlik suv miqdori "Tasdiqlashsiz" taqdim etiladi va hisoblash uchun amal qiladi.

3.10. Sarflangan suv uchun hisob-kitob quyidagi quvur o'tkazish qobiliyatidan kelib chiqib oyning kalendar kunlari hisobidan, formulaga muvofiq, 3.3-bandga asosan quyidagi hollarda hisoblanadi:

- Hisoblash qurilmasi "Ta'minotchi"ning ro'yxatidan o'tkazilmagan taqdirda;

- Ichimlik suvi miqdorini ishonchli hisobga olishni buzgan holda, ruxsatsiz aralashuvlardan himoya qilishning hisoblash qurilmasida buzilish holatlari aniqlanganda.

4. NARXI, SHARTNOMANING UMUMIY MIQDORI VA TO'LOV SHARTLARI

4.1. "Iste'molchi uchun narx Navoiy viloyati Moliya boshqarmasi tomonidan va III guruh uchun tasdiqlangan tarifga muvofiq 20.08.2020 yildan QQS bilan 1 m³ suv uchun 2530 so'mni tashkil etadi.

Navoiy viloyati hokimining 04/11/2019 yildagi K-69-sonli qaroriga binoan "Iste'molchi" har oy iste'mol qilingan ichimlik suvining har bir kubometri uchun 50 so'mlik qo'shimcha to'lov bilan "Ta'minotchiga" to'laydi.

Agar yetkazib beriladigan suv uchun tariflar o'zgargan bo'lsa, shuningdek, sanadan qat'iy nazar, kutilayotgan qo'shimcha to'lovlar qo'llanilishini hisobga olgan holda, "xo'jalik- ichimlik suvi yetkazib berish va iste'mol qilish" shartnomasi kuchda qoladi va "Iste'molchi" xizmatlari joriy qilingan kundan boshlab yangi tariflar bo'yicha to'lashga majburdir.

4.2. Ko'rsatilgan suv ta'minoti uchun to'lov joriy oyning oxiriga qadar 100% miqdorida oldindan o'tgan oyning hajmiga muvofiq amalga oshiriladi. (asos-O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 noyabrda PQ-5241-sonli "Suv ta'minoti va suv chikarish sohasida to'lov intizomini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni).

4.3. "Iste'molchi" tomonidan iste'mol qilingan suv hajmining oylik to'lovi "Ta'minotchi" tomonidan har oyning 10-kunigacha hamda o'tgan oy uchun taqdim qilingan hisobvaraqlar asosida amalga oshiriladi va keyingi oyning oldindan to'lovini amalga oshirish uchun hisobvaraqlar elektron shaklda axborot tizimiga yuklanadi. (2019 yil 25 iyundagi № 522-son VMQ va 2020 yil 14 avgustdagi № 489-son VMQ). "Iste'molchi" tomonidan oldindan to'lov amalga oshirilmagan taqdirda, "Issiqlik manbai" DUK "Iste'molchi"ni qo'shimcha ogohlantirishsiz suv yetkazib berishni to'xtadi. Bunday holda, yong'in va sanitariya holati uchun javobgarlikni "Iste'molchi" o'z zimmasiga oladi.

4.4. Suv ta'minotini tiklanishi 100% (yuz foiz) oldindan to'lov amalga oshirilgandan so'ng tiklanadi. Agar qayta ulanganda, hisoblangan bazaviy qiymatning o'n baravari miqdorida to'lov undiriladi.

5. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

5.1. "Ta'minotchi"ning majburiyatlari:

5.1.1. Shartnomaga muvofiq "Iste'molchiga" suvni uzluksiz yetkazib berishni ta'minlash.

5.1.2. O'zDST 950:2011 "Ichimlik suvi" talablariga javob beradigan suvning sifatini ta'minlash

5.1.3. Javobgarlikni taqsimlash chegaralarida "Iste'molchi" tomonidan o'rnatiladigan qurilmalar uchun quvurlarda hisob bosimini ushlab turish.

5.1.4. Agar suv ta'minoti tarmog'ida yoki uskunasida suv ta'minotini to'xtatmasdan amalga oshirib bo'lmaydigan ta'mirlash ishlarini bajarish zarur bo'lsa, "Ta'minotchi" "Iste'molchini" o'chirilishidan 2 kun oldin ogohlantiradi.

5.2. "Ta'minotchi"ning huquqlari: